

## BUXORO SHASHMAQOMINING SHAKLLANISH TARIXI

Saydullayeva Gulzoda

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Musiqqa ta'limi va san'ati magistratura yo'nalishi 2 bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buxoro shashmaqomining tarixiy ildizlari, kelib chiqishi, shakllanishi hamda mumtoz musiqiy obidalar ularning hayot tarsi haqida ma'lumotlar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** shashmaqom, madaniy merosi, musiqiy obidalar, maqomchilik an'anasi, sozandalar, ijrochilik san'ati

Jahon musiqqa merosining ulkan sarchashmasi hisoblangan Shashmaqomning YUNESKO tomondan "Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi" deb e'tirof etilishi katta tarixiy voqea bo'ldi. Ota-bobolarimizdan qolgan mo'tabar musiqiy merosni nafaqat asrab-avaylash, balki kelasi avlodlarga tortiq qilish ham bugungi vazifamizdir.

Bobokalonlarimiz tarafidan qadimgi davrlardan beri bizgacha saqlanib kelingan mumtoz musiqiy obidalar, ularning hayot tarzlaridagi o'ziga xos an'analari zamonlar o'tishi bilan shu makonda kamol topgan ilm ahlining musiqiy izlanishlarida sayqal topib, tobora ilmiyroq bir tusga tegishli yozma manbalarga muhrlanib, ma'anaviy boyligimizga aylangan. Ushbu mulkni tadqiq qilib, amaliyotga tadbiiq etish va ularning mohiyatini ochib berish kabi muhim vazifa, ayni paytda, biz uchun kechiktirib bo'lmaydigan ishlardan biridir.

Shashmaqom kabi murakkab hodisa haqida suhbatni atama va tushunchalarga oydinlik kiritishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Gap shundaki, bizning davrimizda Shashmaqom ikki xil hodisani nazarda tutadi. XX asrda O'zbekistonda Buxoro Shashmaqomi va Farg'ona-Toshkent maqomlari an'analari sintezi asosida milliy Shashmaqom shakllandi. Uni Toshkent shashmasi yoki o'zbek shashmasi deb ham atash mumkin. Xuddi shunday umummilliy sikl Tojikistonda ham shakllangan tojik shashmaqomi hisoblanadi. Buxoro shashmaqomi bilan genetik aloqadorligiga qaramay, yangi turdagi shashmaqom, albatta, boshqa badiiy-musiqiy hodisa ekanligini bilishimiz zarur.

Buxoro shashmaqom — O'rta Osiyodagi mumtoz musiqaning asosiy turlaridan biri bo'lib, u bir necha asrlar davomida Buxoroning qadimiy musiqqa an'analari sharoitida shakllangan. Shashmaqom ushbu ko'p millatli shahar musiqqa madaniyatining yorqin an'analari va uslubiy xususiyatlarini o'ziga singdirgan.

Lekin Buxoro shashmaqomining mohiyatini faqat Buxoro san'ati bilan cheklab qo'ymaslik kerak. Shashmaqomning shakllanishiga Eron, Qashg'ar, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston va boshqa islom dunyosi mintaqalari va davlatlaridan kelgan millatlarning an'analari ham ta'sir ko'rsatgan. U ham umumiy musulmon, ham mahalliy Buxoro an'alarini chuqur sintez qiladi. Shashmaqomning hozirgi variantida biz, eng avvalo, uchta asosiy musiqa an'analari – tojik, turkiy-o'zbek va buxoro-yahudiyning hissasini ko'ramiz.

O'rta asr yozma manbalarining tarqoq ma'lumotlari Buxoroda tarixning turli davrlarida maqomlar turli shakl va an'analarda ijro etilganligini ko'rsatadi. Eng muhimi o'n ikki maqom, 24 sho'ba va olti avazaning (XV – XVII asrlar) umumsharqiy tizimi bo'lib, ular asosida keyinchalik turli mintaqaviy ("milliy") maqomot turlari, jumladan, Buxoro shashmaqomi ham shakllangan.

Buxoro maqomlari tarixidagi burilish davri XVI asrning birinchi uchdan biriga to'g'ri keldi. Bu esa Hirot maqom maktabining yemirilishi va ko'plab taniqli sozandalarning – maqomchilik an'ansi sohibining Buxoroga ko'chib kelishi bilan bog'liq. Ular orasida Buxoro maqom maktabining asoschisi bo'lgan Mavlono Najmiddin Kavkabiylar Buxoriylar (1532—33 yillarda o'ldirilgan) alohida ajralib turardi. Bu maktab doirasida keyinchalik Buxoro Shashmaqomi tashkil topdi. Bu, ehtimol, XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida sodir bo'lgan. Har holda, Shashmaqom atamasi birinchi marta yozma manbalarda XIX asr o'rtalaridan boshlab uchraydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, shuni qayd etish lozim ko'rinadiki, Buxoro "Shashmaqom"i Avesto davridan so'nggi asrlarda, aniqrog'i, uning ildizi 2400 yillik davrga teng keladi. Demak, Aleksandr Makedonskiyning bizning o'lkalarimizga kirib kelishidan oldin, Eron najot hududlar va Turon zaminlarida oltin hayot peshqadamlik qilgan davrlardan dalolat berishini tassovvur qilish, zamonaviy dunyoqarashlar va ma'naviyatiga ega inson tariqasida qiyoslash mumkin. Buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik san'atining rivojlanishi qadim zamonlarga bog'lanib ketadi. Buyuk sharq allomalari Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Paxlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Paxlavon Muhammad, Najmiddin Kavkabiylar, Darvish Ali Changiy va boshqa ulug' bobokalonlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg'u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun - qoidalariga oid qimmatli ma'lumotlarni bayon etib ketganlar.

Mashhur didaktik asar "Qobusnoma"da ham hofizlik va san'atkorlikning qoidalariga bag'ishlangan alohida bob o'rin olgan. Zaminimizda o'tkazilgan tarixiy

qazilmalar natijasida topilgan dutorga, surnay, qonunga, nayga o'xshash sozlar, toshlarga o'yib bitilgan sozandalarning so'z chalib turganidagi tasvirlari, minatyura asarlaridagi sozanda va hofizlarning rasmlari o'lkamizda ijrochilik san'ati qadimdan rivojlanib kelganligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi fikrlarga suyanan holda, shunday xulosa qilish mumkinki, tarixiy sharoitda yangi ijro yo'llari sayqallangan ko'rinishlari bilan jilolanib kelgan. Keyinchalik xalqning etnik joylashishi, yashash sharoitlari, turmush tarziga qarab ularning turlicha madaniy rivojlanish davriga asoslanib har xil maqom yo'llari ham o'z o'rnini topganligi ehtimoldan holi emas. Natijada XVIII asrga kelib Buxoroning "Shashmaqom" (Olti maqom)i: "Buzruk", "Rost", "Navo", "Dugoh", "Segoh", "Iroq" maqomlari o'zining nasr va mushkulot qismlari bilan rivojlangan bo'lsa, Farg'onaning "Chor maqom"i (To'rtmaqom), "Dugoh Xusayniy"ning yettita yo'li, "Chorgoh"ning oltita ijrochilik yo'li, "Shaxnozi Gulyor"ning oltita ijrochilik yo'li hamda "Bayot" yo'llarining taronalari bilan jilolanib, ijro etib kelingan.

Musiqiy-nazariy mashg'ulotlarda o'quvchilarni faolligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni aqliy, ahloqiy rivojlanishida hamda badiiy-g'oyaviy tarbiyasiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shashmaqom tarkibiga kiruvchi asarlarini tinglanganda o'quvchilarni hissiyoti va ruhiyatiga faol ta'sir ko'rsatadi. Shashmaqom ularning his-tuyg'ularga faol ta'sir etadi. Tinglagan musiqa asarlariga o'quvchilar musiqiy asarni qanday tasavvur etishlarini rasmini chizib keldilar va hikoya tarzida so'zlab berdilar.

Darslarining mazmunida faqatgina o'zlashtirishni emas, balki o'quvchilar ongini voqelikka munosabatini rivojlantirish, estetik madaniyatini tarkib toptirish shuningdek, o'quvchilarda musiqiy did va nafosatni shakllantirish dars mazmunini hayot bilan bog'lab olib borishda musiqa asarlarini ijro etishda ularni tahlil etish dars samaradorligini oshirdi. Shuningdek musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishini yanada oshirdi va dars davomida ijobiy natijalarga erishildi. Ayniqsa ijodiy jarayonga qiziqish ortdi. Darsda kompozitorlarni tanishtirish esa asar mualliflariga nisbatan hurmat xissini qaror toptirishga imkon berdi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Дарвиш Али. Трактат о музыке. (перевод с перс.-тадж. Д. Рашидовой) Рукопись биб-ка НИИ Искусствознания Инв. N879 с. 23-29.
2. Назаров А.Ф. Книга песен аль-Исфаксани в аспекте межрегиональных музыкально-транскультурных процессов. Дис.Кан.Ис-я, биб-ка НИИ Искусствознания. Инв N812, с. 37.
3. N. Kavkabiyy. Ko'rsatilgan adabiyot. B. 48; Abdurahmon Jomiy. Traktat o muzike. T., AN UzSSR, 1960, s. 85